O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK-TEXNOLOGIK DASTURI

Kamalova Dilorom Olimjon qizi

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, PhD mustaqil izlanuvchisi.
e-mail: diloromkamalova858@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0006-5536-812X

Annotatsiya.

Bugungi zamon o‘qituvchilarining pedagogik madaniyatini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan metodik-texnologik dastur pedagogik munosabatlar va qadriyatlarning uyg‘unligini ta’minlaydi. Mazkur dastur o‘quvchilarni fanlar chegarasidan tashqarida fikrlashga, baholash usullarining real hayotda qo‘llanilishi va natijalariga e’tibor qaratishga, progressiv nuqtayi nazarlarni o‘zlashtirishga, innovatsion faoliyat va muammolarni hal etishga undaydi. Shuningdek, u o‘qituvchi va o‘quvchilarning jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashishi hamda texnologik taraqqiyotning jadal sur’atlari yaratadigan imkoniyatlardan samarali foydalanishiga xizmat qiladi. Sifatli pedagog kadrlar faoliyatini tashkil etishda ularning pedagogik-intellektual, emotsional-hissiy salohiyati, aksiologik holati va pedagogik madaniyatining rivojlanganlik darajasini oldindan diagnostika qilish hamda uning natijalariga asoslangan maxsus metodik chora-tadbirlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, pedagogik madaniyat, pedagogik kuzatuvlar, o‘quv hujjatlari, kognitiv qiziqish, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish, konativ komponent, refleksiya, yumshoq va qattiq ko‘nikmalar, raqamli ta’lim.

МЕТОДИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОГРАММА РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Камалова Дилором Олимжон кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана, независимый соискатель PhD.

Аннотация.

Методико-технологическая программа, направленная на развитие педагогической культуры современных учителей на основе аксиологического подхода, обеспечивает гармоничное сочетание педагогических отношений и ценностей. Данная программа побуждает обучающихся мыслить за пределами отдельных учебных дисциплин, акцентировать внимание на практическом применении методов оценивания и их результатах, осваивать прогрессивные подходы, заниматься инновационной деятельностью и решением проблем. Кроме того, она способствует адаптации педагогов и обучающихся к меняющимся потребностям общества и эффективному использованию возможностей, предоставляемых стремительным технологическим развитием. При организации деятельности квалифицированных педагогических кадров целесообразно предварительно диагностировать их педагогико-интеллектуальный и эмоциональный потенциал, аксиологическую направленность и уровень развития педагогической культуры, а на основе полученных результатов применять специальные методические меры.

Ключевые слова: аксиологический подход, педагогическая культура, педагогическое наблюдение, учебная документация, познавательный интерес, развитие коммуникативной культуры, конативный компонент, рефлексия, мягкие и жёсткие навыки, цифровое образование.

A METHODOLOGICAL AND TECHNOLOGICAL PROGRAM FOR DEVELOPING PEDAGOGICAL CULTURE IN FUTURE TEACHERS BASED ON THE AXIOLOGICAL APPROACH

Kamalova Dilorom Olimjon qizi

National Pedagogical University of Uzbekistan, Independent PhD Researcher.

Abstract.

A methodological and technological program aimed at developing the pedagogical culture of contemporary teachers through an axiological approach ensures the integration of pedagogical relationships and values. The program encourages students to think beyond disciplinary boundaries, focus on the real-life application and outcomes of assessment methods, engage with progressive perspectives, participate in innovative activities, and develop problem-solving skills. It also enables teachers and students to adapt to the changing needs of society and effectively utilize the opportunities created by rapid technological advancement. In organizing the professional activities of qualified teaching personnel, it is advisable to conduct preliminary diagnostics of their pedagogical and intellectual potential, emotional capacity, axiological orientation, and level of pedagogical culture development and, based on the results, apply appropriate methodological interventions.

Keywords: axiological approach, pedagogical culture, pedagogical observation, educational documentation, cognitive interest, development of communicative culture, conative component, reflection, soft and hard skills, digital education.

Kirish. Ta'lim va tarbiya jarayonining eng e'tirofga loyiq bo'lgan jihati bu bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning aksiologik jihati bo'lib, kelajakdagi ustozlarning axloqiy, intellektual va ma'naviy rivojlanishi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Aynan ushbu mavzuni o'rganish va tadqiq qilish doimo dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi. Shunday ekan, bo'lajak pedagoglarda aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni aniqlash maqsadida tajriba-sinov dasturi tayyorlandi. Unga ko'ra, eksperimentimiz davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyot va manbalar tahlili, o'rganilayotgan muammoni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar, o'quv hujjatlari va talabalarning o'quv faoliyatini o'rganish, maxsus so'rovnomalar va testlar, nazariyani modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, o'z-o'zini va ekspert baholash metodlari pedagogik jarayonda va uning ishtirokchilarida qo'llanildi.

Pedagogik tajribalardan ma'lumki, pedagog faoliyati o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchidan nafaqat oliy ma'lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik va kasbiy tayyorgarlik yo'nalishidagi bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, ma'lum tajribaga ham ega bo'lishni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funksiyalarini amalga oshirish jarayoni bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni pedagogik jarayon subyektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi.

Zero, ta'lim tizimining samaradorligi pedagog kadrlarning puxta tayyorgarligi, jumladan, zamonaviy, texnologik, kognitiv, psixologik-pedagogik tomondan tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar: O. Yu. Lebedova tomonidan ishlab chiqilgan bo'lajak o'qituvchilar va yosh o'qituvchilar uchun tayyorlangan xulq-atvor metodik kartasining "Pedagogik qobiliyatlar va madaniyat, o'qituvchi mehnatga layoqatliligi" testi va pedagogik madaniyat darajasini aniqlash uchun T. F. Belousova va E. V. Bondarevskaya tomonidan ishlab chiqilgan "Kasbiy va pedagogik madaniyatning rivojlanish darajasi"ning 116 ta xususiyatdan iborat jadvali kabi diagnostik so'rovnomalar, diagnostik anketa, test va so'rovnomalar pedagogik sohaga oid 2-kurs, 3-kurs talabalari va yaqin kelajakda o'z kasbini boshlashga tayyor bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar, ya'ni 4- va 5-kurs talabalari hamda magistratura talabalarida o'tkazilib, ularning aksiologik tizimi holati va pedagogik madaniyatining rivojlanish darajasidan kelib chiqib maxsus metodik-texnologik dastur tayyorlandi.

Bo'lajak o'qituvchilarning aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatini rivojlantirish maqsadida dastlabki maxsus metodikalar quyidagi yo'nalishlar: "Psixologiya", "Maktabgacha ta'lim", "Boshlang'ich ta'lim" hamda "Pedagogika" yo'nalishining bakalavr va magistratura talabalari bilan o'tkazildi.

Talabalarning o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qobiliyatlari va ularda qanday darajada pedagogik madaniyat rivojlanganligi yuzasidan yuqorida aytib o'tilgan diagnostik metodikalar o'tkazildi va ularda yuqori, o'rta, past darajalar aniqlandi hamda ularda aksiologik tizimlari va pedagogik madaniyatining quyidagi muhim fazilatlarini yuqori darajada rivojlantirish kerakligi aniqlandi, ya'ni kognitiv qiziqish, boshqalarni o'qitishga qiziqish, o'z akademik faoliyatiga qiziqish, mutaxassislik, empatiya, o'ziga ishonch (ijobiy o'zini-o'zi hurmat qilish), bolalar bilan ishlashga qiziqish, sabr-toqat, tilni rivojlantirish, o'z-o'zini tanqid qilish va tashkilotchilik qobiliyati (yetakchilik), kasbiy va axloqiy fazilatlar, shaxsiy va pedagogik o'z-o'zini boshqarish, kasbiy bilim, asosan, aniq ta'lim va tarbiya vazifalarini belgilay olish, pedagogik maqsadni belgilash, tahlil qilish va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati, axloqiy va irodaviy o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalari, o'qitish texnikasi ko'nikmalari, amaliy malakalar.

Yuqori darajadagi ko‘rsatkichlar aniqlangan talabalarda pedagogik madaniyatning barcha tarkibiy qismlari rivojlangan va ularni yanada takomillashtirish zarurati aniq ifodalangan hamda aksiologik yondashuv asosidagi pedagogik madaniyat yaxshi rivojlangan holatlar o‘rganildi. Ular quyidagi sifatlarda namoyon bo‘ladi, ya’ni o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtira oladi; kasbiy faoliyatga oid kerakli axborotlarni tanlay oladi; kasbiy faoliyatga oid barcha topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda mustaqil bajaradi; pedagogik jamoada ishlash ko‘nikmasi rivojlangan; o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qila oladi; pedagogik faoliyat ishtirokchilari bilan faol munosabatda bo‘ladi; pedagogik madaniyatning barcha elementlari rivojlangan. Pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayonini tashkil etish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik tadbirlar tizimi orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning aksiologik tizimi, pedagogik, shuningdek, kommunikativ madaniyatini rivojlantirish, real pedagogik jarayonda tashkil etilishi zarur bo‘lgan intellektual qobiliyatini oshirish va ularning shaxsiy-ijodiy, doimiy ravishdagi konativ komponentini rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘rta darajadagi ko‘rsatkichlar aniqlangan talabalarda pedagogik madaniyatning ayrim tarkibiy qismlari yaqqol namoyon bo‘ladigan, boshqalari esa yetarli darajada rivojlanmagan o‘rtacha daraja bo‘lib, pedagogik madaniyat va uning ahamiyati to‘g‘risida tushunchaga ega; pedagogik faoliyat ishtirokchilari bilan o‘zaro yaxshi munosabat o‘rnata oladi; mustaqil ijod qilish ko‘nikmalari to‘liq shakllanmagan; pedagogik madaniyat elementlari o‘rtacha rivojlangan; pedagogik faoliyat ishtirokchilari bilan erkin muloqotga kirisha oladi; o‘zaro axborot almashinuvi asosida pedagogik faoliyat ishtirokchilari bilan munosabat o‘rnata olish qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan.

Past darajadagi ko‘rsatkichlar aniqlangan talabalarda pedagogik madaniyatning alohida komponentlari rivojlanmagan past daraja, shuningdek, ularni rivojlantirish va malakasini oshirish zarurati mavjud. Kasbiy-pedagogik madaniyat elementlari mavjud, lekin to‘liq shakllanmagan; ilk pedagogik madaniyat ko‘nikmalari shakllangan; pedagogik madaniyatning ayrim elementlari mavjud, lekin yetarlicha rivojlanmagan. Shuningdek, o‘tkazilgan diagnostik metodikalar kognitiv qiziqish, boshqalarni o‘qitishga qiziqish, o‘z mutaxassislik fanlariga qiziqishning pastligi, mutaxassislik empatiyasi, kelajakda ta’lim va tarbiya sohasida ishonch bilan faoliyat olib borishga bo‘lgan ishonchning biroz pastligi, nutq madaniyatining rivojlanmaganligi, o‘z-o‘zini tanqid qila olish, yetakchilik qobiliyati, ta’lim va tarbiya maqsad va vazifalarini belgilay olish, o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyati, axloqiy va irodaviy o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalari, o‘qitish texnikasi ko‘nikmalari, amaliy malakalarning sust rivojlanganligi, hatto ba’zilarida deyarli rivojlanmaganligi, eng achinarlisi, ba’zi talabalar o‘zlari tanlagan kasblarini qabul qila olmaslik holatlari ham namoyon bo‘lishi, bo‘lajak o‘qituvchilarda aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirishga doir tashkiliy, o‘quv-metodik ishlarni keng ko‘lamda olib borish zarurligini ko‘rsatib berdi.

Yuqorida o‘tkazilgan dastlabki aniqlovchi tajriba-sinov diagnostika ishlari natijasida tanlab olingan “Pedagogika” yo‘nalishining 174 nafar respondent talabalaridan 69 tasi past, 63 tasi o‘rtacha va 42 nafar talabaning natijasi esa yuqori ko‘rsatkichni namoyon etdi. Aynan ularda o‘tkazilgan diagnostik metodikalar orqali ma’lum bo‘ldiki, quyidagi aksiologik, evristik, motivatsion, texnologik, shaxsiy-ijodiy, konativ kabi komponentlarni rivojlantirish zarur. Bu orqali talaba-yoshlarning eng dastlabki umumiy madaniyati, kasbiy, axloqiy, metodik, kreativ, tanqidiy, izlanuvchanlik kabi muhim sifatlarini tarkib toptirish orqali aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirish muhim deb hisoblaymiz. Ushbu komponentlarning mazmun-mohiyati esa quyidagicha: aksiologik komponent pedagogik ish qadriyatlarini (psixologik va pedagogik bilimlar, intellektual mehnat madaniyati, pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining shaxsiy erkinligi, pedagogik taktika va boshqalar), dunyoqarashni, huquqiy madaniyatni o‘zlashtirish va qabul qilishni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga doir adabiyotlar ro‘yhati: Shuningdek, tadqiqotchilar J. Raven, Yu. T. Rusakov, V. A. Yasvin va boshqalar ta’kidlaganlaridek, ijtimoiylashuv, ijtimoiy moslashuv, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarliklarini rivojlantirish muammolarini hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Kasbiy tayyorgarlikni boshqarishga yangi yondashuvlar ijodiy qobiliyatlarni ozod qilish, ijodiy rivojlanishning sharti sifatida motivatsion va rag‘batlantiruvchi funksiyalarni birinchi o‘ringa qo‘ydi. Bu yondashuvlar orasida boshqaruvning eng yuqori shakli o‘zini mustaqil boshqarishdir [2, 36].

Evristik komponentni rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatning ma’nosi va maqsadini anglash, ularni bolalarning tabiiy salohiyatini ijodiy o‘zini anglashi bilan bog‘lash, pedagogik fikrlash, pedagogik improvizatsiyani rivojlantirish omili.

Motivatsion komponentda esa kelgusida kasbiy namoyon bo‘lishi uchun ta’lim jarayoniga moslashtirish, o‘rgatish yuzasidan turtki motivlar va ehtiyojlar tizimi shakllanadi.

Texnologik komponent orqali faoliyatga asoslangan tabiatni, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir usullari va texnikasini, muloqot madaniyatini, pedagogik texnologiyalardan, axborot va ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni ochib beradi.

Shaxsiy-ijodiy komponentda o‘qituvchining pedagogik faoliyatdagi asosiy kuchli tomonlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va iste’dodlarini o‘zini anglashida namoyon bo‘ladi. Bunga tashqi ko‘rinish madaniyati, jismoniy tarbiya, axloq va axloqiy madaniyat kiradi.

Konativ komponentning talabalarda rivojlanishida esa bilim olishga doimiy intilish, qadriyat yo‘nalishlarining chuqur shakllanishi, motivlar va ehtiyojlarning kasbiy yo‘nalganligi, kasbiy ko‘nikmalar va kasbiy fazilatlar hamda sohaga oid yangiliklarning eng samaralisini qo‘llay olish qobiliyati tarkib topadi.

N. Yunusaliyeva o‘z maqolasida quyidagicha fikrlarni bildirib o‘tgan, ya’ni pedagogik madaniyat ta’limda e’tiqodni shakllantirish orqali muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim muassasalarida o‘qitish va o‘qishni boshqaradigan qadriyatlar, amaliyot

va me'yorlar. Bu ta'lim yondashuvlariga, munosabatlarga va umumiy ta'lim tajribasiga ta'sir qiladi; pirovardida o'quvchilarning ta'lim natijalariga ta'sir qiladi. Ijobiy narsani tushunish va rivojlantirish pedagogik madaniyat, qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhitni yaratish uchun hamkorlik, innovatsiyalar va uzluksiz kasbiy rivojlanish juda muhimdir. Ijobiy pedagogik madaniyatni tarbiyalash uchun ta'lim muassasalari samarali faoliyatga e'tibor qaratishlari kerak [3, 70].

Axborot texnologiyalari, qolaversa, raqamli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanib o'qitish bo'yicha adabiyotlar talabalarning tadqiqotni uslubiy tushunishlari va o'qituvchilar duch keladigan pedagogik muammolar bilan bog'liq bir qator qarama-qarshiliklarni aks ettiradi. Ushbu ssenariyga asoslanib, bilimga moyillik va uslubiy kompetensiyalar bilan bog'liq uchta asosiy mavzuni aniqlash mumkin: talabalarning tashvishi va metodologiyadan "qo'rqish" (asosan miqdoriy), gnoseologik tushunishning murakkabligi va uning hayotga tatbiq etilishi; metodikalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan tayyorgarlikning yo'qligi va o'qituvchilar o'rtasida tadqiqotning g'oyaviy tushunchalarining xilma-xilligi, yaratilgan pedagogik-tadqiqot muhitining turi allaqachon murakkab uslubiy ssenariyni murakkablashtirib, o'qitish va o'qishning nomuvofiqligi bilan shakllanishida o'qituvchilarda pedagogik madaniyati rivojlantirilmaganligi sabab bo'ladi [4, 91].

Muhokama: Yuqorida o'tkazilgan diagnostik testlar natijasiga ko'ra, 2-kurs talabalarida past natija namoyon bo'lgan va bu ko'rsatkichni yillar davomida o'quv fanlari, Pedagogika yo'nalishi uchun tayyorlangan 3-kursda "Pedagogik ritorika", "Pedagogik mahorat", "Komparativ pedagogika" va 4-kursda "Pedagogik aksiologiya" kabi fanlar, darsdan tashqari mashg'ulotlar, tadbirlar ham o'qitilishi orqali pedagogik madaniyatning umumiy xususiyatlari shakllanishi mumkin, ammo maxsus tayyorlangan "Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish" texnologik-metodik dasturi yordamida o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Pedagogika fani yo'nalishi talabalarida pedagogik madaniyatning asosiy komponenti hisoblangan aksiologik komponentdir va talabalarda pedagogika faniga qadriyatli munosabatni ertaroq shakllantirish muhim bo'lib, ushbu fanni 2-kurs talabalarida o'qitish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun Pedagogika ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan o'quv rejaga "Pedagogik aksiologiya" fanini 2-kurs rejasiga kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Pedagogik ta'lim bo'lajak o'qituvchisining pedagogik ko'nikma va malakalarini rivojlantirish shartlari sifatida ularni yuzaga keltirish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik to'siqlar, ziddiyatlarning kelib chiqish sabablarini anglab olish lozim, ya'ni o'qituvchiga mashg'ulot mobaynida ularni anglab olishiga yordam berish va bugungi kundagi beqaror ta'lim vaziyatlarini inobatga olgan holda ularni yuqori darajadagi pedagogik madaniyatli tayyorlash maqsadida 30 ta maxsus vaziyatli voqealar taqdim etildi va ularga tayyor bir nechta yechimlar ham taqdim etildi. Bunday holatda pedagogik vaziyatga ko'pgina masalalarni yechish jarayoni sifatida qarash mumkin.

Refleksiya pedagogikasi nazariyotchilari pedagogik faoliyatda o'z-o'zini tahlil qilishning rivojlanish usullari va vositalarini taklif etsalar-da, fikrimizcha, o'quvchi uchun pedagogik refleksiyaning foydasini his etish imkonini beruvchi usul hamda yondashuvlarga deyarli ahamiyat berilmagan va e'tibor qaratilmagan. Ushbu maqsadda tajriba guruhlarida kurs mashg'ulotlari jarayonida hatto 1-guruh o'quvchilariga o'zlarining kelajakdagi pedagogik qiyinchiliklarga duch kelganlarida yo'l topa olish imkonini beradigan "fikrlash qurilmasi" taklif etildi. Uning mazmun-mohiyati shundaki, har bir mehnat ta'limi o'qituvchisidan 7 ta fikrlash [5, 91]. Pedagogik qiyinchilikni o'z nuqtayi nazarlari bilan ta'riflay olishlari bilan bog'liq birinchi fikrlashdan keyin esa yettinchi barcha o'qituvchilarining asosiy maqsadni ikkilamchi ta'riflashi yordamida pedagogik qiyinchilikni yengishning yuqori bosqichiga mustaqil chiqa olishi kerak bo'lgan uchinchi tartib refleksiyasi ham bo'lajak kasb egalarini refleksiv tarzda mulohaza qilishga odatlantirish, bu doimiy o'z ustida ishlash konativ komponentning bajarilishiga, shuning bilan birgalikda aksiologik-pedagogik madaniyatni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarga e'tibor qaratishga olib keladi. Ushbu holat amaliy-kasbiy pedagogik faoliyatda qiyinchiliklar orasidagi ziddiyatlarni belgilab beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili:

Tadqiqotchi olimlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy yetuklik darajasini shakllantirishda, turli masalalarni hal qila olish qobiliyatini tarkib toptirishda, yuqori darajadagi pedagogik maqomni shakllantirishda, avlodlar almashinuvi jarayonida ma'naviy va moddiy qadriyatlarimizni uzluksiz hamda mohirona yetkazishda, pedagogik jarayonni tashkil etishda zamonaviy pedagogik bilim va tajribalarni, shuningdek, texnologik va tashkiliy faoliyatni amalga oshirishda muhim jihatlarga e'tibor qaratadilar. Tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning yorqin kelajagiga daxldor bo'lgan yuqori darajada tashkil etilgan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirish zarurati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holda, tadqiqotimiz jarayonida ijtimoiy zaruratdan kelib chiqib, pedagogik talab, konseptual asos, tashkiliy-mazmunli jihatlar hamda pedagogik madaniyatning asosiy komponentlari bo'lgan aksiologik, evristik, motivatsion, texnologik, shaxsiy-ijodiy va konativ komponentlar, baholash mezonlari, pedagogik tashxis hamda natijaviy-samarali komponentni qamrab olgan "Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish" texnologik-metodik dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur tadqiqot ishining asosiy jarayonlarini qamrab olib, belgilangan maqsad va vazifalarning to'liq bajarilishini ta'minladi.

Xulosa. Pedagogik amaliyot va nazariya o'rtasidagi mavjud uzilish, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga nisbatan befarq munosabati quyidagi holatlarda namoyon bo'lishi kuzatiladi:

— pedagogik nazariyalarning ko'pgina vaziyatlarda amaliyotga tatbiq etilmasligi va buning natijasida pedagogik nazariya bilan amaliyot o'rtasida bo'shliqning vujudga kelishi;

— pedagogik nazariyalarda o'qituvchilar hal qilishi zarur bo'lgan pedagogik vazifalarning to'liq asoslanmaganligi;

— boʻlajak oʻqituvchilarning nazariy va amaliy bilimlari yetarli emasligi, aksiologik yondashuv asosidagi pedagogik madaniyati toʻliq rivojlanmaganligi tufayli oʻz oldiga qoʻyilgan vazifalarni bajarish va ularning yechimini izlash salohiyatining yetishmasligi.

Bugungi zamon oʻqituvchilari oʻz pedagogik madaniyati asosida pedagogik koʻnikmalar, munosabatlar va qadriyatlar uygʻunligini shakllantirib, oʻquvchilarni fanlar chegarasidan tashqarida fikrlashga, baholash usullarini real hayotda qoʻllashga, ilgʻor nuqtayi nazarlar asosida faoliyat yuritishga, innovatsiyalar yaratish va muammolarni hal qilishga undaydi. Shunday ekan, oʻqituvchi va oʻquvchilarning jamiyatning oʻzgaruvchan ehtiyojlariga moslashishi hamda texnologik taraqqiyotning jadal sur'atlari taqdim etayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanishi uchun bugungi kun oʻqituvchilarida pedagogik madaniyat asosida yumshoq va qattiq koʻnikmalarni tarkib toptirish muhimdir.

Kelajakdagi asosiy investitsiya ulushi endilikda faqat an'anaviy ishlab chiqarish aktivlari — binolar, inshootlar, yer va boshqa moddiy boyliklarga bogʻliq emas. Oʻqituvchining bilimi va intellektual salohiyati ham muhim nomoddiy boylik sifatida kelajakda barqaror ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot oʻqituvchilarning qattiq koʻnikmalarining ta'sirini tushunish va izohlashga, shuningdek, "oʻqituvchilarning innovatsion qobiliyati"ni rivojlantirishda yumshoq koʻnikmalarni oʻzlashtirishning ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Bu esa muhim ta'limiy va tarbiyaviy vazifalardan biridir. Rainsbury va boshqalarning fikricha, qattiq koʻnikmalar muayyan ish vazifalarini bajarishning texnik jihatlari bilan bogʻliq koʻnikmalar sifatida belgilanadi. Shu sababli qattiq koʻnikmalar kognitiv xususiyatga ega boʻlib, intellektual koeffitsiyent (IQ) bilan bogʻliq [6, 1433].

Aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni uzluksiz rivojlantirish mazmunini joriy etish quyidagi yoʻnalishlarni qamrab oladi:

1. Aksiologik-pedagogik madaniyatni rivojlantirishga motivatsiya uygʻotish.
2. Aksiologik-pedagogik madaniyatga oid tushunchalarni oʻzlashtirish.
3. Pedagogik evristik rivojlanishni ta'minlovchi metod va vositalarni qoʻllay olish koʻnikmalarini shakllantirish.
4. Aksiologik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarni texnologik jihatdan rivojlantirishda zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalari — IoT, MOOC, AR va VR texnologiyalari, ChatGPT va katta til modellari (LLM), talabalar axborot tizimlari (SIS), oʻqishni boshqarish tizimlari (LMS) kabi vositalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish malakasini oshirish.
5. Shaxsiy-ijodiy pedagogik madaniyatni namoyon etishga oid treninglarni tashkil etish hamda zamonaviy ish beruvchilar talablari darajasidagi qattiq va yumshoq koʻnikmalarni rivojlantiruvchi tadbirlarni oʻtkazish.
6. Pedagogik faoliyatning milliy va zamonaviy yoʻnalishlarini uygʻunlashtira olish koʻnikmasini rivojlantirishga qaratilgan manbalardan doimiy faoliyatda foydalanish koʻnikmasini shakllantirish.
7. Amaliy ishlar quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi: 1) nazariy; 2) tayyorlov; 3) eksperimental; 4) talqin etish; 5) joriy etish; 6) baholash. Mazkur bosqichlarda ma'ruza va amaliy mashgʻulotlar, pedagogik masala va vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, mustaqil ishlar hamda treninglardan foydalaniladi. Belgilangan mezonlar asosida boʻlajak oʻqituvchilarning aksiologik yondashuv asosidagi pedagogik madaniyatining rivojlanganlik darajasi yuqori, oʻrta va past darajalarda baholanadi. **Natijada aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyati rivojlangan, pedagogik jarayonga tayyor boʻlajak oʻqituvchi shakllanadi.**

Tadqiqotchilar S. A. Oborotova va I. V. Merzilikinalarning xulosasiga koʻra, muloqot va raqamlashtirish koʻnikmalari oʻqituvchi madaniyatini oshiradi hamda kasbiy madaniyatni rivojlantirishning zamonaviy jihatlarini amalga oshirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi nazariy bilim va amaliy tajribani oʻzaro bogʻlash imkonini beradi [7, 192].

Zamonaviy oʻqituvchining pedagogik madaniyati oʻquvchilar faoliyatini boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan koʻnikmalar bilan boyitiladi. Ushbu koʻnikmalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda oʻquv jarayonini loyihalash, samarali ta'lim jarayonlarini tashkil etishda ularning oʻrni va ahamiyatini anglash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini psixologik idrok etish xususiyatlarini tushunish, boshqaruv jarayonini loyihalash hamda an'anaviy va innovatsion oʻqitish vositalaridan uygʻun foydalanish qobiliyatlari bilan bogʻliq.

Oʻtkazish vaqti	Guruhlar	Talabalar soni	Samaradorlik darajasi		
			Past	oʻrta	Yuqori
Tajriba-sinovgacha	Tajriba guruhi	174	69	63	42
	Nazorat guruhi	182	67	68	47
Tajriba-sinovdan Keyin	Tajriba guruhi	174	26	75	73

	Nazorat guruhi	182	58	71	53

1. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari tomonidan aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirish va shakllantirish muammosiga pedagogik nazariya jihatidan yetarlicha e'tibor berilmoqda. Ushbu konsepsiyaning mazmuniga oid masalalar ko'rib chiqildi, tarkibiy qismlari ajratildi. Tadqiqot davomida "aksiologik yondashuv asosida talabalarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish" tushunchasining mazmuni ochib berildi, unda aksiologik, faol, ijodiy va shaxsiy komponentlar ajratildi.
2. Talabalarda aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik shart-sharoitlar (fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, talabalarning faol bilish faoliyatini tashkil qilish, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga tayanish, pedagoglarning madaniy jihatdan kompetentligi va b.), subyekt va obyekt omillari aniqlandi.
3. Talabalarning aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatini rivojlantirish va shakllantirishning pedagogik tizimi obyektlarning o'zaro ta'siri va o'zaro almashinuvi uchun murakkablik, uzluksizlik, ochiqlik tamoyillariga, o'zgarish uchun ochiqlik, tanlov erkinligi, haqiqiy "qayta aloqa" vositasining rivojlanishi, talabalarning shaxsiyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, taqdim etilgan modelni yaxlit, o'zgaruvchan, dinamik, ochiq tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradigan individual-variativ yondashuvdir.
4. Aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirish va shakllantirish bo'yicha muvaffaqiyatlar ta'lim jarayoni asosida bosqichma-bosqich pedagogik tizim, maxsus kurslardan foydalanish ("Zamonaviy pedagog", "Pedagog faoliyatida kasbiy-pedagogik madaniyat", "Ijodiy izlanuv", "7 ta refleksiv fikrlash", "Real vaziyatli masalalarga yechim ko'rsatish", "O'qituvchining ichki va tashqi imidjini yaratishi", "Teatr pedagogikasi", "Qattiq va yumshoq ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi", "Raqamli pedagogik faoliyat") va o'qitishning yetarli usullari, aksiologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirish va shakllantirish darajasini aniqlash uchun doimiy ravishda o'tkaziladigan kritik diagnostika, keyinchalik pedagogik faoliyat mazmuni tahlil qilindi.
5. Talabalarga raqamli ta'lim texnologiyalarining eng kerakli jihatlari yuzasidan maxsus tayyorlangan ma'lumotlar berildi va ularni pedagogik sohaga tatbiq etishda ushbu bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish orqali pedagogik sohani takomillashtirish bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – 2022-yil 11-iyul.
2. Yuldasheva N. S. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – B. 152.
3. Yunusaliyeva N. Pedagogical Culture: Exploring Its Significance in Education // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot: ilmiy-amaliy masofaviy konferensiya materiallari. – Qo'qon, 2024. – B. 70.
4. Matos J. F., Estrela E., Galego C., Piedade J., Freitas A. Towards a Pedagogical Culture of Teaching Research Methodologies in Education: Challenges, Answers and Ambitions. – Panel Discussion. – 2022.
5. Abduxairov R. A. Mehnat ta'limi o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik madaniyatni uzluksiz rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – 2019. – B. 91.
6. Kamalova D. O. Zamonaviy o'qituvchilar pedagogik madaniyati rivojlanishida yumshoq va qattiq ko'nikmalar borasidagi xorijiy tadqiqotlar natijasi ta'siri // Qo'qon davlat pedagogika instituti xabarnomasi. – 2025. – № 9. – B. 1433.
7. Оборотова С. Модель формирования медиативной культуры руководителей и преподавателей образовательных организаций в процессе профессиональной переподготовки и повышения квалификации // Сборник кадровых ресурсов для непрерывного профессионального образования. – Консорциум «Международная ассоциация профессионального дополнительного образования», 2017. – № 31. – С. 192–205.